

**O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BOSHLANG‘ICH SINFLAR  
O‘QUVCHILARINING BADIY ASARLARINI SHARXLASH  
KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

Fazliddinova SH.,

Ismatova N.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti talabasi

Matlibova Nilufar

Ilmiy rahbar: Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti o‘qituvchisi

**ANOTATSIYA:**

Ushbu maqola boshlanich sinf o‘quvchilarini darsga, o‘qish savodxonligiga, yo‘nalitirish, badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish, bular borasida fikr yurutish, o‘quvchilarni badiiy adabiyotga jalb etishdan iborat. Badiiy adabiyot bilan o‘quvchilarning fikrlash doirasini, ilmiylik, badiiylik darajasini mukammallashtirishdan iborat. O‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishda nutqdagi kamchiliklar sababini ochib beradi.

**АННОТАЦИЯ**

Данная статья имеет целью направить учащихся начальных классов на урок, грамотность чтения, познакомить их с художественной литературой, задуматься о ней, привлечь учащихся к художественной литературе. Это улучшение мышления, научного и художественного уровня учащихся с помощью литературных произведений. Выявляется причина речевых дефектов в развитии устной речи учащихся.

**ABSTRACT:**

This article aims to guide elementary school students to the lesson, to reading literacy, to introduce them to fiction, to think about them, to attract students to fiction. It is to improve the scope of thinking, scientific and artistic level of students with fiction. It reveals the reason for speech defects in the development of students' oral speech.



**KALIT SO‘ZLAR:** badiiy adabiyot, o‘qish savodxonligi, ona tili, matematika, she‘r, ertak, masal, hikoya, topishmoq, maqol, matal, do‘stlik, shoirlar, asarlar birdamlik.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** художественная литература, грамотность чтения, родной язык, математика, поэзия, сказка, притча, рассказ, загадка, пословица, пословица, дружба, поэты, произведения единения.

**KEY WORDS:** fiction, reading literacy, mother tongue, mathematics, poetry, fairy tale, parable, story, riddle, proverb, proverb, friendship, poets, works of unity.

## KIRISH

Mustaqillik yillaridan keyin maktab o‘quvchi, o‘qituvchi va yoshlarga bo‘lgan imkoniyatlar oshdi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchi o‘qituvchilari uchun talablar avvalgidan ko‘ra yanada kuchaydi. Hozirgi kunda esa bularga bo‘lgan e‘tibor yanada ortdi, imkoniyat kengaydi. Asosan ona tili, o‘qish savodxonligi, matematika fanlari eng asosiy fanlar asosida belgilandi. O‘quvchining aqlini charxlash, izlanuvchanligini oshirish uchun matematika, husnixatini yaxshilash, o‘z ona tilini anglashi uchun esa ona tili fani, nutqini, badiiylik darajasini oshirish, jamoat ichida pz fikrini mustaqil, tartibli, o‘rinli namoyon etishi, o‘zini mukammallashtirish uchun o‘qish savodxonligi darslari eng oldi sanoqlarga qo‘yildi.

Ta‘lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma‘lumoti va tarbiyasi ham amalga oshdi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilim ko‘nikma, malakalarini mashg‘ulot vositasida o‘quvchilarga yetkaziladi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtiribborishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta‘lim va tarbiya masalalarini hal etadi. boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘qish darslarida garchi ilmiy jihatdan yondashmasada, amaliy jihatdan turli janrga asarg‘ar o‘qib o‘rganadilar.

## MAVZUNING DOLZARBLIGI

Barchamizga ma‘lumki boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘qish savodxonligi 4yil mobaynida o‘rgatib boriladi. Darsdan tashaqari hikoya, she‘r, masal, topishmiq, maqol, doston, rivoyat kabi janrdagi asarlar kiritilgan. Bulardan tashqari ilmiy-ommabop asarlar ham o‘qitiladi. Masalan topishmoq predmet, videoda hodisalar o‘rtasidagi taqqoslash orqali o‘zlashtirilsa, maqollar



mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlanishini taqazo etadi. Shunga ko'ra tyrli janrdagi badiiy asarlarni o'qitishda o'quvchilardan unga mos usullar tanlash talab etiladi.

Boshlang'ich sinflarda badiiy adabiyot o'qitishdan asosiy maqsad,bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy kanpetentligining asosi sifatida kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilar ma'nabiyatini sog'lomlashtirishda badiiy asarning ta'sir kuchidan oqilona va samarali foydalanish yo'llarini o'rgatishdan iborat.

O'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish va ularni tekshirishda o'quvcjlarga quyidagilarni olib borish darkor. Dars jarayoni dasturda taqdin etilgan biror badiiy asar ustida ishlayotganda,o'quvchilarning avvalgi bilimlari ,pqigan badiiy asarlari bo'yichabajisli munozarali savollar berish,muammoli vaziyatlar yaratish,o'quvchilarning mustaqil ishkashlarini ta'minlash asosida tashkil etiladi .Bu jarayonda qiziquvchanlikni ishirish uchun zamonaviy metodlardan foydalanish lozim. Shundagina badiiy asar mohiyatini yaxshi va chuqurroq tushunish mumkin. O'quvchi badiiy asar mohiyati,mazmunini cjuqur tushunishi darkor. Maktabda bir narsani eshitib hayotda boshqa narsani ko'rgan o'quvchida darslarda sindirilgan haqiqatlarga ishonch yo'qoladi. Eng to'g'ri yo'l -hayotiy haqiqatlar asosida tarbiyalashdir. Haqiqat qanchalik achchiq,murakkab va yoqimsiz bo'lmasin foydalidir. U oxir oqibat shakllanayotgan ahaxsga hayotning asl mohiyatininocjib beradi. Unga hayot qiyinchiliklarini yengishning to'g'ri yo'lini tanlash imkonini beradi. Adabiy ta'limning har bir bosqichida o'quvchilar ma'naviy kamolotini ta'minlashda ularning yangi bilimlarini pzlaei uchun o'zlari kashf etib o'zlashtirishlari muhim sanaladi .

Bilim olish jarayonida hayratlanarli,kutilmagan hodisalar bilan to'qnashish o'quvchi shaxsiga o'ziga ishonch hissini paydo qiladi . Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarning ma'naviy kamolotini ta'minlashda 2narsani hisobga olish zarur: Birinchidan,o'quvchilar ongiga fanga doir qonuniyatlar va ularning o'zaro aloqasi nechog'lik mukammal aks etganini aniqlash.

Ikkinchidan,shu asnosida bilimlarni o'zlashtirishga intilish-motivatsiya uyg'otib,uni qo'llab - quvvatlash, mustahkamlash.

O'quvchilar imkoniyatlarini ocha bilish o'z vaqtida ishonarli ravishda ,uning yoshiga xos xususiyatlari ehtiyoj va qiziqishlarini bilgan holda uni hayotiy tajribasi aqliy hamda jismoniy kuchi ,qobiliyatini namoyon etishga unday bilishdir. O'qituvchi o'z ishiga yondashsa bu.albatta.o'quvchilar faoliyatida o'z aksini topasi va ularning yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.



Ma'naviyatning sog'lomlashuviga yo'naltirilgan adabiyot darslarida u boshlang'ich sinflarda bo'ladimi yoki yuqori bosqichda, har bir adabiy qahramonni ijobiy yoki salbiy obraz emas, jonli inson sifatida o'rganish, uning ichki olami, kechinmalari, shodliq va iztiroblari, xatti-harakat zamirida shaxs mavjudligini anglash hamda uni tuyishga o'rganish ustuvorlik qiladi. Badiiy timsolga o'z shodligiva o'quvchilarga bevosita daxldor shaxs sifatida qarash talab qilinadi. Badiiy asarda tasvirlangan o'ta yomon odamning ham yaxshi sifati va yaxshi insonning ham o'ziga xos kamchiliklari borligi kuzda tutiladi. Tom ma'noda yomon odam bo'lmagani singari, ideal darajada ham yaxwi odam yo'q. Asar qahramonini anglash yo'lida berilgan savol-topshiriqlar, ijobiy insholar, mustaqil ishlar ko'magida o'quvchi insonni o'rgana boradi. U orqali o'zini taniydi.

Boshlang'ich sinflar uchun tavsiya etilgan bir qancha adabiyotlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan: A. Obidjon, X. To'xtaboyev, E. A'zam, E. Vohidov, A. Oripov, Mirte mir, Oybek, X. Davron, H. Olimjon, Cho'lponlar kiradi. Bolalar adabiyotiga chuqur iz qoldirgan shoirimizda biri A. Obidjonning asarlari "Eng yorug' kun", "Masxaraboz bola", "Juda qiziq bola", "Ajoyibxona", "Bahromning hikoyasi" kabilardir.

### " DO'STLIK SINOVDA CHINIQAADI" ertagi

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Barg bilan Kesak bo'lgan ekan. Ular qalin do'st bo'lishib, bir biridan ajralmaslikka, og'ir kunlarda bir biriga yordam berishga va dalashishibdi. Ular do'st bo'lib yashay boshlabdilar. Kunlardan bir kuni qattiq shamol turibdi.

Shamolning g'uvillashidan qo'rqib ketgan Barg Kesakning oldiga yugurib kelib qo'rqayotganini aytibdi. Shunda Kesak:

-Hech narsadan qo'rqma, men seni bu balodan asrayman, deb Bargni shamollardan pana qilib to'sibdi.

Shamol qanchalik kuchli bo'lmasin, Bargni uchirib keta olmabdi. Bundan uning jahli chiqib Yomg'irni yuboribdi. Bu bilan shamol Kesakdan o'ch olmoqchi bo'libdi. Lekin Yomg'ir hamniularni qo'rqita olmabdi. Yomg'irning yog'ishini ko'rgan Kesak Bargga nolish qilibdi. O'zini yomg'irdan qutqarishini so'rabdi.

Shunda Barg Kesakni yomg'irdan pana qila boshlabdi. Qanchalik ko'p sel yog'masin, Kesak nam bo'lmabdi. Yomg'ir tingach Kesak bilan Barg xursand bo'lishibdi. Ularning bir biriga mehr oqibati yanada ortib, inoqlashib ketibdilar.

Bu badiiy ertakning tahlilini turli ypsinda tushuntirish mumkin. Ya'ni hayotda qancha sinovlarga duch kelsak ham bir birimizga yordam berishimiz, mehr oqibatli bo'lishimiz, hurmat qilishimiz, yaxshi kunda ham yomon kunda ham birga



bo'lishimizni tushunishimiz mumkin. Xuddi shundaykim o'quvchilar orasida bir birga mehr ,hurmat bo'lsagina ular jamoa bo'lib ishlay oladilar. Do'stlik qancha ustun bo'lmasin ularga boshqa tomondan beriladigan zarbalar hech qachon bu do'stlikni ajrata olmaydi. Bu ertsk bilan o'quvchilarni birdamlikka yetaklar nazarda tutilga. Har bir tun ortida bir yorug'lik bor deyilishi shundandir.

Xulosa qilib aytganda o'quvchilarni qancha ko'p badiiy adabiyotga yo'naltirsak shuncha katta yutuqlarga erushamiz. Agar pquvchi hikoya she'r masallarni o'qib, o'zi tahlil qilsa shuncha fikrlarsh qobiliyati ortadi. Boshlang'ich sinfdanoq o'quvchini kitobga jalb qilsak ,keyinchlik ham bu kitoblar o'z hayoti davomida o'ziga oq-u qorani ajratishga,to'g'ri va noto'g'ri yo'llarni tushunishida yordam beradi. Jamoat ichida fikr bildirishdan tortinmaydi. Shu sababli eng katta vazifa bishlang'ich sinf o'qituvchilarning bo'ynida bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va savodxonlik darajasini oshirishda xalqaro baholash dasturining ahamiyati.Muazzamxon Xodjayeva"Ta'lim sifati yangi O'zbekiston taraqqiyoti yuksaltirishning muhim roli"
2. Musanboyeva Q va boshqalar "Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik Toshkent:"Innovatsiya Ziyu", 2020
3. <https://kh-davron.uz>

